

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT


2020- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yishi va rivojlantirishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

38 505
121,5 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

36 536
121,5 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2020- yilda)


5 761
96,0 %

Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



xususiy korxonona birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'xis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'xis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-sentabr holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni


(yanvar-avgust oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-avgust oylarida 5 761 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –3 080 ta, xususiy korxonalar –662 ta, oilaviy korxonalar –1 750 ta va boshqalar –269 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 6 276 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 306 taga yoki 58,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 977 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 192 taga yoki 57,9 % ga oshgan.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 750 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 295 taga yoki 20,3 % ga kamaygan.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 567 tani tashkil etmoqda, ulardan 550 tasi yoki 97,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 61 taga yoki 12,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 49 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Samarqand viloyati	550	382	168
Samarqand sh.	238	150	88
Kattaqo'rg'on sh.	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	29	25	4
Bulung'ur	24	10	14
Jomboy	37	31	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	12	10	2
Qo'shrabot	15	6	9
Narpay	4	3	1
Payariq	16	9	7
Pastdarg'om	30	24	6
Paxtachi	9	5	4
Samarqand	38	29	9
Nurobod	10	10	
Urgut	44	39	5
Toyloq	14	10	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida 238 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,3 %), Urgut 44 ta (8,0 %), Jomboy 37 tani (6,7 %), Samarqand 38 ta (6,9 %), Pastdarg'om 30 ta (5,4 %) hamda Bulung'ur tumanlarida 24 ta (4,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,0 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,3 %), Payariq va Ishtixon (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Toyloq (4,1 %), Bulung'ur (4,0 %), Oqdaryo (3,9 %), Jomboy (3,7 %) Kattaqo'rg'on shahri va Narpay (3,4 %), Nurobod (2,9 %), Paxtachi va Qo'shrabot (2,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (22,1 %), Urgut (8,3 %), Pastdarg'om (8,1 %), Samarqand (8,1 %), Kattaqo'rg'on (7,0 %), Ishtixon (6,3 %), Bulung'ur (5,5 %), Payariq (4,7 %), Jomboy (4,5 %), Oqdaryo hamda Tayloq (4,1 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,7 %), Narpay (3,6 %), Nurobod (3,5 %), Qo'shrabot (3,4 %) va Paxtachi (2,9 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)





2020- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida quyidagicha taqsimlanmoqda Samarqand shahrida (16,7 %), Samarqand (14,6 %), Pastdarg'om (10,7 %), Urgut (9,1 %), Kattaqo'rg'on (7,8 %), Payariq (7,3 %), Jomboy (6,1 %), Toyloq (5,7 %), Narpay (4,9 %), Ishtixon (4,5 %), Oqdaryo (4,3 %), Bulung'ur (3,9 %), Kattaqo'rg'on shahar (2,0 %), Paxtachi (1,0 %), Qo'shrobot (0,9 %) va Nurobod (0,5 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni hamda o'sish sur'ati

(2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)

O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda Davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. The navigation menu includes 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'RASHMIY STATISTIKA' and includes a dropdown menu for 'Xizmatlar ro'yxati' with options: 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code). The form includes a 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from image) field and a 'Qidiruv' (Search) button. The right sidebar, 'FOYDALI MA'LUMOTLAR', lists various resources like 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:66 230-45-42**